



UDK:894.375

Nigora XOLMUMINOVA,
O'zDSMI tahririyat va nashriyot bo'limi xodimi
E-mail: xolmuminovanigora588@gmail.com

UzDSMI dotsenti, PhD Z.Ma'rufova taqrizi asosida

AMIRIY SHE'RIYATIDA AN'ANAVIY OBRAZLAR

Аннотация

Mazkur maqolada shoir amir Umarxon – Amiriy hayot yo'li va ijodi haqida so'z yuritiladi. Mumtoz she'riyatimizda an'anaviy obrazlarga alohida e'tibor beriladi. She'rning ta'sirchanligini oshirishda, tasviriy ifodalar, she'riy san'atlardan mohirona foydalanishda, insoniy tuyg'ularni, tasavvufiy g'oyalarni ochib berishda muhim vosita sanaladi. Ayniqsa, Amiriy el-yurt dardi, orzu-umidlari, milliy qadriyatlari, qalb pokligi, iymon butunligi, Yaratganga oshuftalik kabi bir qancha mavzularda qalam tebratadi. Maqolamizda ushbu jihatlar alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Amiriy, an'anaviy obrazlar, timsol, g'azal, ishq, tasavvuf, oshiq, ma'shuqa, visol, hijron.

ТРАДИЦИОННЫЕ ОБРАЗЫ В ПОЭЗИИ АМИРИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются жизнь и творчество поэта Амира Умархана-Амири. В нашей классической поэзии особое внимание уделяется традиционным образам. Они считаются важным инструментом усиления воздействия поэзии, искусного использования изобразительных средств, поэтического искусства, раскрытия человеческих чувств и мистических идей. В частности, Амири затрагивает ряд тем, таких как боль народа, мечты и надежды, национальные ценности, чистота сердца, непоколебимость веры и преданность Создателю. В нашей статье особое внимание уделяется этим аспектам.

Ключевые слова: Амири, традиционные образы, образ, газель, любовь, мистицизм, возлюбленный, возлюбленная, прощание, хиджран.

TRADITIONAL IMAGES IN AMIRI'S POETRY

Annotation

This article discusses the life and work of the poet Amir Umar Khan - Amiri. In our classical poetry, special attention is paid to traditional images. They are considered an important tool in increasing the impact of poetry, skillfully using figurative expressions, poetic arts, revealing human feelings, and mystical ideas. In particular, Amiri writes on a number of topics such as the pain of the people, dreams and hopes, national values, purity of heart, integrity of faith, and devotion to the Creator. Our article pays special attention to these aspects.

Key words: Amiri, traditional images, image, ghazal, love, mysticism, lover, mistress, farewell, hijran.

Kirish. XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmi ko'hna Qo'qonda o'ziga xos bir madaniy, ilmiy va adabiy muhit vujudga keladi; turli shahar, qishloqlardan olimlar jamlanib, maxsus hunar maktablari, madrasalar rivojiga alohida e'tibor beriladi. Hatto sohaviy-rassomlik, naqqosh-u muzahhiblik, hattotlik, mashshoqlik, sozanda-navozandalik, hunar maktablari tashkil etiladi. Eng mumtoz asarlarni saralab ko'chirtirish, tarjima qildirish yo'lga qo'yiladi. Ularga arkoni davlat homiylik qiladi, hattot va mutarjimlar moddiy jihatdan ta'minlanib turiladi. Shuningdek, 50 dan ziyod ijodkorlar ham yagona adabiy muhitda jamlanishadi. Hatto chekka Ashtda ham Muhammadamin Kozaniy boshchiligida kotiblar va rassomlar-musavvirlar tayyorlaydigan maxsus maktab ochilgan. Ana shu katta bir ijodiy jarayonning rahnomasi – sarkori amir Umarxon – Amiriy edi.

Bo'lajak shoir va davlat arbobi Umarbek 1787-yili Qo'qonda zodagon oilasida tug'iladi. U boshlang'ich ta'limni yollangan muallimlardan olgach, madrasada o'qiydi: arab va forsiy tillarni, zamonasidagi barcha bilimlarni mukammal egallaydi. U o'z doirasidagi kishilar orasida xarakteridagi ko'p ijodiy fazilatlar bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham yosh Umarbek xalq orasida obro'-e'tibor qozongan edi.

Qo'qon xoni Umarbekning saltanatni adolatli boshqarishda, saroy atrofida adabiy-badiiy muhitni

shakllantirishda, naqqoshlik, me'morchilik, sug'orish ishlariga alohida e'tibor berishda turmush o'rtog'i Mohlaroyim (Nodira)ning o'rni beqiyosdir.

Bizning ajdodlarimizda faxrlanishga arzigulik, shoh va shoirlik an'anasi mavjud. Amir Umarxon ham mana shu an'anani davom ettirgan, qalami o'tkir shoirlardan biri bo'lgan. Umarxon "Amiriy" taxallusida o'zbek va tojik tillarida katta hajmdagi she'rlar devonini qoldirgan. Amiriy zullisonayn shoir sifatida har ikki tilda barobar ijod qilib, g'azallar, muxammas, murabba, musaddaslar yaratgan. Sharqning daho shoirlari Hofiz, Kamol, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Bedil hamda Fuzuliyning eng sara g'azallariga muxammaslar bitgan, o'xshatmalar yozgan. Quyidagi g'azalida shoir Navoiy ijodi o'ziga badiiyat sarchashmasi bo'lganligini qayd etgan.

Bir paripaykar xati la'lini sharh ettim Amir,

Bu g'azalni zeri mashqidir Navoiy daftar [8-b].

Insonlar paydo bo'lgandan beri ideal shaxs – timsol yaratishga harakat qilishgan. Davlatni adolatli shoh boshqarishini, har bir inson go'zal ahloqlar bilan shakllangan bo'lishini, buyuk, yengilmas, umrboqiy hayot kechirishni orzu qilishgan va shunga intilib yashaganlar. Mana shu ezgu orzu asnosida adabiyot olamida bir qancha an'anaviy obrazlar, ya'ni timsollar kirib keldi. Bu obrazlar xalqning orzu-umidlarini, intilishlarini, maqsadlarini o'zida mujassam etgan. Shu boisdan

ham qanday jamiyat, qanday davr kelishidan qat'iy nazar xalq ularni qalbida saqlab, keyingi avlodga yetkazib berishgan. Mohloroyimning ma'naviy ustoz Umarxon (Amiriy) ham an'anaviy obrazlardan unumli foydalangan. Asarlarida Sulaymon, Yusuf, Iskandar, Ahraman, Jamshid, Xizr, Layli, Majnun, Shirin, Farhod, Vomiq, Idris, Iso, Mansur Halloj singari an'anaviy obrazlarga ezgu g'oyalarni, qarashlarni mohirona singdirib yuborgan. Bir g'azalida:

Har ko'ngul lavhida dog'ingdin agar bo'lsa nishon,
Netsun oyina Iskandar ila sog'ari Jam [171-b].

Amiriyning fikricha, agar ko'ngil lavhida yorning ishqida kuyan joy, ya'ni nishon bo'lsa, uning oldida Iskandar oynasi-yu, Jamshidning jomi hech narsa emas. Barcha zohiriy narsalar ilohiy ishq oldida hech qanday qadr-qimmatga ega emas, degan fikrni ilgari suradi.

Adabiyotda Jamshid jomi bilan ma'lum va mashhurdir. Jamshidning may ichadigan jomida qanday ma'no bor? Bizga ma'lumki, Tasavvuf adabiyotida mayga Alloh vasliga erishish uchun bir vosita sifatida qarang. Jom oshiqning ko'ngli ramzi. Demak, Jamshid ma'lum bir ma'rifat manzillarini bosib o'tgan komil shaxs sifatida tasvirlanadi.

Jomi Jamshidu Iskandar shavkatidin urma dam,
Naylasun oni junun bozorini rasvolari [243-b].

Bizga ma'lumki, turkiy adabiyotda Yusuf go'zallik timsoli sifatida gavdalanadi. Rivoyatlarda aytilishicha, Zulayxo ismli qiz Yusufga oshiq bo'lib qoladi va unga erishish uchun barcha qiyinchiliklarni yengib o'tadi. Alal oqibat, Yusuf muhabbatiga sazovor bo'ladi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: zohiriy go'zallik ham inson uchun muhimmi? Albatta, yo'q. Bu yerda go'zallik ham ramziy ma'nodadir, ya'ni ichki botiniy go'zallik nazarda tutilgan. To'g'ri, Yusufning suvrati chindanda go'zal bo'lgan, lekin siyratining go'zalligi uni boshqa insonlardan ajratib turadigan eng asosiy xususiyatlaridan bo'lgan. Amiriy ham g'azallarida Yusufning har tomonlama go'zalligiga alohida e'tibor beradi va yorning husni jamolini unga qiyoslaydi.

Jamoling jilvasin ko'rgan zamon Yusuf xijolatdin,
Der edi: "Zarramen, xurshidi ruxsoring erur axsan" [192-b].

Ya'ni, ma'shuqaning jamolini ko'rgach Yusuf o'zining xunukligidan hijolat chekib dediki, "Sening xurshidi ruxsoring g'oyat buyukdirki, men esa oldida bir zarradurmen". Tasavvuf adabiyotida foni dunyodagi barcha go'zalliklar Alloh go'zalligining bir zarrasi sifatida qaraladi. Shoirning g'azalida ma'shuqa, ya'ni yor Allohning timsolidir. Demak, Yusufning go'zalligi Alloh go'zalligining bir zarrasidir.

Sharq-u G'arbda Mansur Halloj qatlining sababini turlicha sharhlab, tahlil qilib kelishadi. Aslida unga qo'yilgan ayb-gunoh shundan iborat ediki, u jazba holatida "Analhaq" deb faryod qildi. So'fizimda buni "hol" hamda "vajid" paytida Haq jamolini ko'rgandek bo'lib, o'zini unutish deydi. Uning gunohi shundaki, ana shu holatdagi sirni fosh qilib namoyon qildi. Amiriy "axsan" radifli g'azalida Mansurning qatli, ya'ni dorga osilish voqeasiga ishora qilish orqali oshiqning muhabbati nechog'li kuchli ekanligini ta'kidlaydi:

Muhabbat kishvarida xalqai zulfungga osildim,
Junun ahli degan Mansurdek doring erur, ahsan [192-b].

Yani, muhabbatim g'oyat kuchliligidan zulfing doriga o'zimni osdim, bu holni junun ahli ko'rib dedilarki, Mansurdek doring ulug'dir. Mumtoz adabiyotda zulfni dorga o'xshatish an'anaviy hodisadir. Shoir tashbeh san'atidan foydalanish barobarida uni Mansur doriga qiyoslash orqali chiroyli badiiy tasvir yaratadi. G'azalda Alloh uchun kerak bo'lsa jonni ham fido qilish qiyosi ilgari surilgan. Tarixiy ma'lumotlar, xususan, afsona hamda rivoyatlar yozma adabiyotda Xisrav va Shirin obrazlarining vujudga kelishiga ma'lum bir zamin bo'lgan edi. Yozma adabiyotda birinchi bor Abulqosim Firdavsiy Xisrav va Shirin obrazini qayta ishlaydi. Undan keyin bu mavzuni Nizomiy Ganjaviy qayta ishlaydi. Bu ijodkor ham Xisrav obrazini ijobiy qahramon sifatida tasvirlaydi. XV asrga kelib Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonini yaratadi va bu dostonida Xisravni salbiy obraz sifatida gavalantiradi.

Amiriy g'azallarini kuzatganimizda shu narsaning guvohi bo'lamizki, Xisrav obrazi maishatparast, o'z manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan xudbin shaxs sifatida emas, balki Alloh ishq bilan yonayotgan komil inson sifatida tasvirlanadi.

Ishq iqlimida tasvir etti iqbolim Amir,

Xisravu Jamshidu Iskandarni osorin ko'rung [140-b].

Amiriy ushbu g'azalida Xisravni Jamshid-u Iskandarga tenglashtiradi, shoir o'ziga murojaat qilib ishq yo'lida Xisravdek tadbirkor, Iskandardek buyuk, Jamshiddek najodkor bo'lish g'oyasini ilgari suradi.

Alisher Navoiy g'azallariga bog'langan muxammasida Amiriy Xisravni quyidagicha tasvirlaydi.

Erur ul Xisravi xo'bon malohat masnadinda shah,
Nechukkim men gadodurmen, aning oldida xoki rah [319-b].

Ya'ni, yaxshilar mamlakatining podshohi Xisrav erur, men u yerda gado va uning oldida tuproqdurmen.

Mumtoz adabiy an'anada bo'lgani kabi uning ijodida ham majoziy va haqiqiy ishq bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisiga vosita sifatida qaraladi. Ishqni hayotning ma'nosi, ijodning ilhomchisi hisoblagan shoir ko'plab g'azallarida o'zini "ishq mulkining amiri", "mulki dil amiri", "ko'ngil taxti amiri", "junun shahri amiri", "iqlimi vafo amiri" sifatleri bilan lutf etadi. Amiriy devonidan joy olgan lirik turning g'azal janriga oid namunalar obraz va obrazlilik bilan ziynatlangan. Ularda insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etadi, shoir ularda asrlar davomida shakllanib kelgan an'anaviy obraz va badiiy tasvir vositalariga qaysidir jihatdan yangicha ma'no yuklaydi [15-b].

Amiriy ijodi tilining soddaligi, misralar ravonligi, samimiyligi, realistik tasvirni berishga intilishi, she'riy san'atlar va tasviriy ifodalardan mohirona foydalanishi, xalq afsonalri, rivoyatlari, mifologiyasi hamda mumtoz adabiyotimizdagi an'anaviy obrazlardan unumli foydalanganligi, xalq dardi va orzularini kuylashi bilan boshqa ijodkor asarlaridan ajralib turadi. Shoir asarlarida ko'tarilgan shoh va shoirlik, ma'rifat va johillik, komillik va tubanlik kabi masalalar hozirgi kun uchun ham dolzarbdur. Vaqt o'taveradi, avlodlar almashinaveradi, lekin insoniy qadriyatlar abadiyligicha qolaveradi. Shoh va shoir amir Umarxon – Amiriy bu mavzuni chuqur yoritgan va keng kitobxon ommasiga yetkazib bera olgan iste'dodli shoirlardan biri edi.

ADABIYOTLAR

1. Qodirova. M. Amiriy devoni. – Toshkent, Fan, 1972. [8, 171, 243, 192, 192, 140, 319-b].
2. Qobilova. Z. Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi. – Toshkent, Tamaddun, 2022. [15-b].